XALQ DEPUTATLARI URGANCH SHAHAR KENGASHI
QAROR

2023 - yil 6 - yanvar VI-65-2-12-180-K/23 Urganch shahar hokimligi

Urganch shahrining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2023 yil 05 yanvardagi “2023 yil uchun Xorazm viloyati mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-57-1-12-0-K/23–sonli qaroriga muvofiq hamda Xorazm viloyati hokimligining moliya bosh boshqarmasining 2022 yil 30 dekabrdagi 01-01-33-38/400-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Urganch shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Xorazm viloyat kengashining 2023 yil 05 yanvardagi “2023-yil uchun Xorazm viloyati mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Xorazm viloyat kengashining 2023 yil 05 yanvardagi “2023-yil uchun Xorazm viloyati mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga (keyingi o‘rinlarda Qaror deb ataladi) muvofiq, Urganch shahar mahalliy budjetining 2023-yil uchun daromadlari 154,0 mlrd.so‘m, xarajatlari 195,1 mlrd.so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 41,1 mlrd.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2023-yil uchun Urganch shahar mahalliy budjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2023-yil uchun Urganch shahar mahalliy budjeti asosiy xarajat ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. 2023-yil uchun Urganch shahar mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2023-yil uchun Urganch shahar mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. 2023-yil uchun Urganch shahar mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2023-yil uchun viloyat budjetidan Urganch shahar mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

- Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat'iy nazar kamaytirishga yo'l qo'yilmasligi Qonunda belgilab qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

9. 2023-yil uchun Urganch shahar mahalliy budjetida yo'l qo'yiladigan eng kam mablag'lar miqdori 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

10. 2023-yil uchun Urganch shaharda yuridik shaxslarning yer solig'ining Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining qaroriga asosan stavkalari (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan tashqari)ga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari 8-ilovaga muvofiq belgilansin.

11. 2023-yil uchun Urganch shaharda jismoniy shaxslarning yer solig'ining Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining qaroriga asosan stavkalari (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan tashqari)ga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 9-ilovaga muvofiq belgilansin.

12. 2023-yil uchun Urganch shaharda yuridik shaxslarning mol-mulk solig'ini xisoblab chiqarish maqsadida mulk qiymatining 1 kv.metri uchun minimal miqdorlari 10-ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

13. 2023-yil uchun Urganch shahar mahalliy budjeti zaxira jamg'armasi hajmlari 1,8 mlrd.so'm miqdorida belgilansin.

14. O'zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag'lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo'yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2023 yil 05 yanvardagi "2023-yil uchun Xorazm viloyati mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida"gi VI-57-1-12-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq 2023-yilda quyidagi soliq turlari:

a) Quyidagi soliq turlari rag'batlantiruvchi daromadlar:

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (ajratma me'yori 10 foiz)

b) Urganch shahar budjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

- jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan to'laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i(YaTT);

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno;

- davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar.

- qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.

s) Quyidagi soliq turlari viloyat va tuman (shahar)lar budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

- yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

- aylanmadan olinadigan soliq;

d) Quyidagi soliq turlari bo‘yicha aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar 2022 yil 1 iyul halatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromadlar:

- Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo) ;

- Mobil aloqaga aksiz solig‘i;

- Tamaki mahsuloti uchun aksiz solig‘i;

15. Urganch shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Eshchanov), Urganch shahar moliya bo‘limi (J.Sapayev), Urganch shahar davlat soliq inspeksiyasi (M.Abdalniyozov) mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

- tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

- mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

- budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

- budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

- tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

- budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

16. Davlat soliq inspeksiyasi (M.Abdalniyozov), tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

- noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

- xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

- noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

17. Urganch shahar davlat soliq inspeksiyasi (M.Abdalniyozov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

- soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirishga;

- yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rishga;

- aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazishga;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

- xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

18. Urganch shahar davlat soliq inspeksiyasi (M.Abdalniyozov), Kadastr agentligi Urganch shahar bo‘limi (S.Saidov) 2023-yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, viloyatda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

19. Majburiy ijro byurosi Urganch shaxar bo‘limi (N.Sultonov) Urganch shahar davlat soliq inspeksiyasi (M.Abdalniyozov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

20. Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Q.Kenjaev) jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

21. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Eshchanov) tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

- bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

- xatlov natijalariga ko‘ra shaharda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlari ro‘yxatini shakllantirish;

- shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

- bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va
video-materiallar tayyorlash;

- xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini «ye-ijro auksion» maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

22. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Eshchanov) tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda tashqi reklama ob’ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

23. Urganch shahar moliya bo‘limi (J.Sapayev):

- budjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlari kuchaytirsin;

- budjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har oy yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borsin;

- o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti xar chorakda eshitib borilsin.

24. Shahar Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

- mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

- Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

- Mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

25. Urganch shahar hokimligi:

- Urganch shahar mahalliy budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, Urganch shahar xalq deputatlari, shahar hokimligining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, shahar hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

- mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

26. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Eshchanov), tegishli muassasa va tashkilotlar bilan birgalikda:

- mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan
chora-tadbirlar;

- ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

27. Urganch shahar hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

28. Mazkur qaror “Yangi Urganch” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda Urganch shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

29. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

30. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Urganch shahar Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (Sh.Xalimov) va Urganch shahar hokimligi (J.Eshchanov) zimmasiga

yuklatilsin.

Kengash raisi **O.Xolboyev**

Xalq deputatlari Urganch shahar
Kengashining
2023 yil 6 yanvardagi
VI-65-2-12-180-K/23-son qaroriga
1-ilova

2023 йил учун Урганч шаҳар бўйича маҳаллий бюджет даромадларининг режа кўрсаткичлари

Даромад турлари		**минг. сўм**
1	Фойда солиғи	
2	Айланмадан олинадиган солиқ	30 966 000
3	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	39 113 900
4	Якка тартибдаги тадбиркорлар учун жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	7 482 000
5	Якуний истеъмолчиларга бензин, дизель ёқилғиси ва газ реализация қилишдаги акциз солиғи	
6	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	
7	Жисмоний шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	8 254 000
8	Юридик шахслар ер солиғи	25 154 000
9	Жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғи	5 876 000
10	Қурилиш материаллари бўйича ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ	
11	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ	10 061 000
12	Давлат божи	
13	Жарималар	
14	Давлат унитар корхоналари дивиденд тушумлари	
15	Давлат мулки бўйича ижара тўловлари	3 055 000
16	Йиғимлар	
ЖАМИ		**129 961 900**
	Мобиль алоқа хизмати, тамаки ва алкоголь маҳсулотлари, шу жумладан пиво учун акциз солиғи тушумларидан тегишли равишда ўтказиб бериладиган даромадлар	**24 051 867**
	Алкоголь маҳсулотлари, шу жумладан пиво	9 730 213
	Мобиль алоқа хизмати	4 173 696
	Тамаки маҳсулотлари	10 147 958
ЖАМИ ДАРОМАД		**154 013 767**
ТРАНСФЕРТ		**41 131 003**

Xalq deputatlari Urganch shahar
Kengashining
2023 yil 6 yanvardagi
VI-65-2-12-180-K/23-son qaroriga
2-ilova

Урганч шаҳар маҳаллий бюджетининг 2023 йилги асосий харажат кўрсаткичлари

минг сўмда

Кўрсаткичлар		Миқдори
	ХАРАЖАТЛАР-ЖАМИ	**195 144 770**
1.	**ИЖТИМОИЙ СОҲА ВА АҲОЛИНИ ИЖТИМОИЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШГА ХАРАЖАТЛАР - ЖАМИ**	**124 119 918**
	шу жумладан:	
1.1	Маориф	38 630 241
	- мактабгача таълим	22 566 504
	- умумий таълим	16 063 737
1.2	Соғлиқни сақлаш	54 171 596
1.3	Тиббий-ижтимоий хизматлар учун харажатлар	
1.4	Маданият ва спорт, оммавий ахборот воситалари	5 074 747
	- маданият ва оммавий ахборот воситалари	1 021 489
	- спорт	4 053 258
1.5	Болали оилаларга ва кам таъминланган оилаларга нафақалар ва компенсациялар	25 997 898
1.6	Озодликдан маҳрум этиш жазосини ўтаб бўлган фуқароларга «дастлабки ижтимоий-моддий ёрдам пакети»	31 200
1.7	Ижтимоий кўникма марказлари	214 236
2.	**ИҚТИСОДИЁТГА ХАРАЖАТЛАР**	**40 980 215**
2.1	Ободонлаштириш	35 156 654
2.2	Ички хўжалик автомобиль йўлларни таъмирлаш харажатлари	3 000 000
2.3	Ветеринария қўмитаси	1 110 155
2.4	Маҳаллий бюджетларда ҳоким ёрдамчиларининг тавсиялари асосида маҳалла инфратузилмасини яхшилаш учун	1 713 406
4.	**ДАВЛАТ БОШҚАРУВ ОРГАНЛАРИНИ САҚЛАШ**	**15 673 011**
4.1	Давлат бошқарув идоралари	15 673 011
5.	**ФУҚАРОЛАРНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИНИ САҚЛАШ**	**3 054 863**
6.	**ЗАҲИРА ЖАМҒАРМАСИ**	**1 838 280**
7.	**Фуқаролар ташаббуси жамғармаси**	**9 478 483**

Xalq deputatlari Urganch shahar
Kengashining
2023 yil 6 yanvardagi
VI-65-2-12-180-K/23-son qaroriga
3-ilova

2023 йил учун Урганч шаҳар бюджетидан биринчи даражали бюджет маблағларини тақсимловчиларга ажратиладиган кенгаш ажратмаларининг чекланган миқдорлари

№	Кўрсаткичлар	Шаҳар ҳокимлиги томонидан киритилган
Харажатлар миқдори, Жами		**195 144 770,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	**195 144 770,0**
1.	**Халқ таълими бўлими**	**16 063 737,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	16 063 737,0
2.	**Мактабгача таълим бўлими**	**22 566 504,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	22 566 504,0
3.	**Тиббиёт бирлашмаси**	**54 171 596,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	54 171 596,0
4.	**Маданият бўлими**	**1 021 489,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	1 021 489,0
5.	**Жисмоний тарбия ва спорт бўлими**	**4 053 258,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	4 053 258,0
6.	**Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш бўлими**	**1 110 155,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	1 110 155,0
7.	**Молия бўлими**	**27 442 359,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	1 413 261,0
	Ижтимоий нафақалар	25 997 898,0
	Озодликдан маҳрум этиш жазосини ўтаб бўлган фуқароларга «дастлабки ижтимоий-моддий ёрдам пакети»	31 200,0
8.	**Ободонлаштириш бошқармаси**	**38 156 654,0**
	шу жумладан:	

	жорий харажатлар	38 156 654,0
9.	**Ҳокимият**	**30 559 018,0**
	шу жумладан:	
	жорий харажатлар	2 449 575,0
	Давлат бошқарув идоралари	11 810 175,0
	Ижтимоий кўникма марказлари	214 236,0
	Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларини сақлаш	3 054 863,0
	Захира жамғармаси	1 838 280,0
	Маҳаллий бюджетларда ҳоким ёрдамчиларининг тавсиялари асосида маҳалла инфратузилмасини яхшилаш учун	1 713 406,0
	Фуқаролар ташаббуси жамғармаси	9 478 483,0

Xalq deputatlari Urganch shahar Kengashining
2023 yil 6 yanvardagi
VI-65-2-12-180-K/23-son qaroriga
4-ilova

Умумдавлат солиқларидан шаҳар ва туманлар маҳаллий бюджетларига ажратмалар меъёри

Фоиз ҳисобида

Т/Р	Шаҳар ва туманлар номи	Айланмадан солиқ	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	Якка тартибдаги тадбиркорлар тўлайдиган жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	Акциз солиғи: - бензин, дизел ёқилғиси ва газ реализациясидан солиқ	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	Жисмоний шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	Юридик шахслар ер солиғи	Жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғи	Ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ (норуда материаллари)	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ	Ижара тўловлари
1	Урганч шаҳри	100	10	100			100	100	100	100	100	100

Xalq deputatlari Urganch shahar
Kengashining
2023 yil 6 yanvardagi
VI-65-2-12-180-K/23-son qaroriga
5-ilova

Шаҳар маҳаллий бюджетининг 2023 йил даромадлари ва харажатлариинг чегаравий ҳажми

минг сўмда

Ҳудуд номи	Даромад	Харажат
ЖАМИ	**154 013 767,0**	**195 144 770,0**
Урганч шаҳри	154 013 767,0	195 144 770,0

Xalq deputatlari Urganch shahar
Kengashining
2023 yil 6 yanvardagi
VI-65-2-12-180-K/23-son qaroriga
6-ilova

Шаҳар маҳаллий бюджетининг 2023 йилги юқори бюджетдан ажратиладиган тартибга солувчи бюджетлараро трансфертлар миқдорлари

Шаҳар ва туманлар	**Тартибга солувчи трансферт миқдори**
ЖАМИ	**41 131 003,0**
шундан	
Урганч шаҳри	41 131 003,0

Xalq deputatlari Urganch shahar
Kengashining
2023 yil 6 yanvardagi
VI-65-2-12-180-K/23-son qaroriga
7-ilova

Шаҳар маҳаллий бюджетида йўл қўйиладиган энг кам маблағлар миқдори

минг сўмда

Т/р	**Ҳудуд номи**	**Миқдор**
	ЖАМИ	**860 000,0**
	шундан	
1	Урганч шаҳри	860 000,0

Xalq deputatlari Urganch shahar
Kengashining
2023 yil 6 yanvardagi
VI-65-2-12-180-K/23-son qaroriga
8-ilova

Урганч шаҳрида 2023 йил учун Юридик шахсларнинг ер солиғи ставкалари (деҳқон хўжалигини юритиш учун берилган қишлоқ хўжалигига мўлжаллаган ерлардан ташқари) (1 гектар ер майдони учун млн сўмда)

\

Т/р	Маҳалла номи	Халқ депутатлари Хоразм вилояти Кенгашининг қарорига асосан ставкаси	Коэффициент (0,7 дан 3,0 гача)	Ер солиғи ставкаси 2023 йил учун
Урганч шаҳар		**47,0**	**1**	**47,0**
1	Мустакиллик МФЙ	47,0	1	47,0
2	Феруз МФЙ	47,0	1	47,0
3	Маърифатчи МФЙ	47,0	1	47,0
4	Юкори-бог МФЙ	47,0	1	47,0
5	Ал-Хоразмий МФЙ	47,0	1	47,0
6	Беш-берган МФЙ	47,0	1	47,0
7	Шодлик МФЙ	47,0	1	47,0
8	Гулшан МФЙ	47,0	1	47,0
9	Гулзор МФЙ	47,0	1	47,0
10	Навбахор МФЙ	47,0	1	47,0
11	Авесто МФЙ	47,0	1	47,0
12	Машъал МФЙ	47,0	1	47,0
13	Янги-хаёт МФЙ	47,0	1	47,0
14	Ашхабад МФЙ	47,0	1	47,0
15	Хамжихатлик МФЙ	47,0	1	47,0
16	Янги обод МФЙ	47,0	1	47,0
17	Саховат МФЙ	47,0	1	47,0
18	Жамбул МФЙ	47,0	1	47,0
19	Бобур МФЙ	47,0	1	47,0

20	Оби-хаёт МФЙ	47,0	1	47,0
21	Навруз МФЙ	47,0	1	47,0
22	Истиклол МФЙ	47,0	1	47,0
23	Кухна-калъа МФЙ	47,0	1	47,0
24	Тоза боғ МФЙ	47,0	1	47,0
25	Умид МФЙ	47,0	1	47,0
26	Жинговуз МФЙ	47,0	1	47,0
27	Дустлик МФЙ	47,0	1	47,0
28	Темир-йулчи МФЙ	47,0	1	47,0
29	Байналминалчи МФЙ	47,0	1	47,0
30	Олимпия МФЙ	47,0	1	47,0
31	Гулчилар МФЙ	47,0	1	47,0
32	Бустон МФЙ	47,0	1	47,0
33	Камолот МФЙ	47,0	1	47,0
34	Зиёкорлар МФЙ	47,0	1	47,0
35	Бинокор МФЙ	47,0	1	47,0
36	Олма боғ МФЙ	47,0	1	47,0
37	Жалолиддин Мангуберди МФЙ	47,0	1	47,0
38	Исломобод МФЙ	47,0	1	47,0
39	Янги Ўзбекистон МФЙ	47,0	1	47,0
40	Нурли Хаёт МФЙ	47,0	1	47,0

Xalq deputatlari Urganch shahar
Kengashining
2023 yil 6 yanvardagi
VI-65-2-12-180-K/23-son qaroriga
9-ilova

Урганч шаҳрида 2023 йил учун Жисмоний шахсларнинг ер солиғи ставкалари (деҳқон хўжалигини юритиш учун берилган қишлоқ хўжалигига мўлжаллаган ерлардан ташқари) (1 кв метр ер майдони учун сўмда)

сўмда

Т/р	Маҳалла номи	Халқ депутатлари Хоразм вилояти Кенгашининг қарорига асосан ставкаси	Коэффициент (0,7 дан 3,0 гача)	Ер солиғи ставкаси 2023 йил учун
Урганч шаҳар		**434,7**	**1**	**434,7**
1	Мустакиллик МФЙ	434,7	1	434,7
2	Феруз МФЙ	434,7	1	434,7
3	Маърифатчи МФЙ	434,7	1	434,7
4	Юкори-бог МФЙ	434,7	1	434,7
5	Ал-Хоразмий МФЙ	434,7	1	434,7
6	Беш-берган МФЙ	434,7	1	434,7
7	Шодлик МФЙ	434,7	1	434,7
8	Гулшан МФЙ	434,7	1	434,7
9	Гулзор МФЙ	434,7	1	434,7
10	Навбахор МФЙ	434,7	1	434,7
11	Авесто МФЙ	434,7	1	434,7
12	Машъал МФЙ	434,7	1	434,7
13	Янги-хаёт МФЙ	434,7	1	434,7
14	Ашхабад МФЙ	434,7	1	434,7
15	Хамжихатлик МФЙ	434,7	1	434,7
16	Янги обод МФЙ	434,7	1	434,7
17	Саховат МФЙ	434,7	1	434,7
18	Жамбул МФЙ	434,7	1	434,7
19	Бобур МФЙ	434,7	1	434,7
20	Оби-хаёт МФЙ	434,7	1	434,7

21	Навруз МФЙ	434,7	1	434,7
22	Истиклол МФЙ	434,7	1	434,7
23	Кухна-калъа МФЙ	434,7	1	434,7
24	Тоза боғ МФЙ	434,7	1	434,7
25	Умид МФЙ	434,7	1	434,7
26	Жинговуз МФЙ	434,7	1	434,7
27	Дустлик МФЙ	434,7	1	434,7
28	Темир-йулчи МФЙ	434,7	1	434,7
29	Байналминалчи МФЙ	434,7	1	434,7
30	Олимпия МФЙ	434,7	1	434,7
31	Гулчилар МФЙ	434,7	1	434,7
32	Бустон МФЙ	434,7	1	434,7
33	Камолот МФЙ	434,7	1	434,7
34	Зиёкорлар МФЙ	434,7	1	434,7
35	Бинокор МФЙ	434,7	1	434,7
36	Олма боғ МФЙ	434,7	1	434,7
37	Жалолиддин Мангуберди МФЙ	434,7	1	434,7
38	"Исломобод" МФЙ	434,7	1	434,7
39	Янги Ўзбекистон МФЙ	434,7	1	434,7
40	Нурли Хаёт МФЙ	434,7	1	434,7

Xalq deputatlari Urganch shahar
Kengashining
2023 yil 6 yanvardagi
VI-65-2-12-180-K/23-son qaroriga
10-ilova

Урганч шаҳрида 2023 йилда юридик шахсларнинг мол-мулк солиғи ставкалари

(1 кв метр мулк майдони учун)

минг сўмда

Т/р	Ҳудуд номи	2023 йил		
		Солиқ кодексига асосан солиқ ставкаси мутлақ миқдори *(СК 412-модда)*	Коэффи-циент (1,0 дан 0,5 гача)	2023 йил учун Юридик шахслар мол-мулк солиғи ставкаси
1	Урганч шаҳар	1 500,0	х	1 500,0